

O'zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari

Rasulov Gayrat Pardayevich

E-mail: rgayrat@bk.ru

"Islom tarixi va manbashunosligi

IRCICA" kafedra mudiri, PhD

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ularni ommalashtirishga qaratilgan davlat siyosati, huquqiy-tashkiliy mexanizmlar tahlil qilingan. Madaniy meros departamenti (avvalgi bosh boshqarma)ning asosiy faoliyat yo'nalishlari, xususan, tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, davlat ro'yxatini yuritish, me'moriy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, tarixiy shaharlarni rivojlantirish rejalari kabi vazifalar qamrab olingan. Shuningdek, davlat va jahon miqyosida madaniy merosdan samarali foydalanish orqali turizm va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, moddiy madaniy boylik, tarixiy yodgorliklar, arxeologik obyektlar, davlat muhofazasi, yuridik mexanizm, madaniy meros departamenti, huquqiy baza, tarixiy shaharlar, turizm infratuzilmasi.

Правовые и организационные основы охраны культурного наследия в Узбекистане

Расулов Гайрат Пардаевич

E-mail: rgayrat@bk.ru

Заведующий кафедрой "История ислама и источниковедение IRCICA," PhD

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация: В данной статье проанализирована государственная политика, правовые и организационные механизмы, направленные на охрану, рациональное использование и популяризацию объектов материального культурного наследия в Узбекистане. Рассмотрены основные направления деятельности Департамента культурного наследия (ранее — Главное управление), в частности, охрана исторических памятников, ведение государственного реестра, проведение экспертизы архитектурной документации, а также планы развития исторических городов. Также проанализированы перспективы развития туризма и национальной экономики за счёт эффективного использования культурного наследия на государственном и международном уровнях.

Ключевые слова: культурное наследие, материальные ценности, исторические памятники, археологические объекты, государственная охрана, юридический механизм, департамент культурного наследия, правовая база, исторические города, туристическая инфраструктура.

Legal and organizational foundations for the protection of cultural heritage in Uzbekistan

Rasulov Gayrat Pardayevich

E-mail: rgayrat@bk.ru

Head of the Department "History of Islam and Source Studies IRCICA," PhD

International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation: This article analyzes the state policy, legal and organizational mechanisms aimed at the preservation, rational use, and promotion of tangible cultural heritage objects in Uzbekistan.

It discusses the main areas of activity of the Cultural Heritage Department (formerly the Main Directorate), including the protection of historical monuments, maintenance of the state register, expert review of architectural documents, and plans for the development of historical cities. The article also examines the prospects for tourism and national economic development through effective utilization of cultural heritage at both national and international levels.

Keywords: cultural heritage, tangible cultural assets, historical monuments, archaeological sites, state protection, legal mechanism, Cultural Heritage Department, legal framework, historical cities, tourism infrastructure.

Milliy tarixni to'g'ri anglash va ma'naviy merosni asrab-avaylash jamiyat taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingan ilk yillardan boshlab xalqimizning boy tarixi, madaniyati va qadriyatlarini tiklash, ularni ilmiy asosda o'rganish hamda kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasida ko'tarildi. Ayniqsa, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ommalashtirish maqsadida yangi huquqiy-tashkiliy mexanizmlar joriy etildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning qadim o'tmishi, shonli tarixi, ajdodlarimizdan qolgan nodir madaniy merosni ilmiy o'rganish, uni asrash va undan foydalanish bo'yicha yangicha yondashuv, talab va vazifalar davlat miqyosida kun tartibiga qo'yildi. 1992-yili O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida tashkil etilgan "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi" bu boradagi ilk institutsional tuzilma sifatida faoliyat yuritdi. Keyinchalik mazkur tuzilma 2019-yildan boshlab "Madaniy meros departamenti" sifatida qayta tashkil etildi va uning vakolatlari yanada kengaytirildi[1]." O'zbekiston Respublikasida madaniy merosni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar maxsus vakolatli davlat organi — Madaniy meros departamenti tomonidan qonunchilikka asoslangan holda tashkil etiladi. Departament zimmasiga yuklangan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, **moddiy madaniy meros** obyektlari, jumladan, arxeologik va me'moriy yodgorliklar, muzey eksponatlari va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida amaldagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish. Xususan, alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar va YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlar bo'yicha boshqaruv rejalari ijrosini ta'minlash yuzasidan davlat nazorati amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, **moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritish**, ularning tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatini aniqlash, tegishli hujjatlash va davlat hisobiga olish ishlari yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, ko'chmas mulk shaklidagi madaniy meros obyektlarining turlari va muhofaza hududlari belgilab beriladi, ularning miqdor va sifat ko'rsatkichlari hisobga olinib, narxiy bahosi shakllantiriladi.

Uchinchidan, **tarixiy-madaniy va loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini** amalga oshirish, madaniy meros obyektlarining tarixiy qiymati va noyobligiga putur yetkazmagan holda qurilish, ta'mirlash yoki qayta tiklash ishlarini yuritishda doimiy **ilmiy-texnik nazoratni** ta'minlash vazifasi bajariladi.

To'rtinchidan, **alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy va jahon merosi obyektlari joylashgan hududlarda** shaharsozlik, qurilish va boshqa xo'jalik faoliyatlarini ushbu hududlarning tarixiy muhiti, tabiiy landshafti va arxitekturasiga xosligini saqlagan holda muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan.

Madaniy hudud - madaniy boyliklardan ishlab chiqarish va iqtisodiy foydalanishni optimallashtirish maqsadida yaratilgan hududdagi munosabatlar tizimi. Ushbu maqsadga madaniy merosni boshqarish rejalari va vositalarini, shuningdek, bir xil hududlarda nomoddiy va moddiy xayriyalarni birlashtirish orqali erishiladi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston madaniy merosni muhofaza qilish, milliy qadriyatlar va an'analarni xolis o'rganish hamda ularni tiklashning tashkiliy - huquqiy asoslari yaratildi. Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab – asrashga majbur va madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida" ekanligi ta'kidlab o'tilgan[2]. Shuningdek, mustaqillik yillarida "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"[3] gi, "Muzeylar to'g'risida"gi, "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi[4]. Mazkur qonunlarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli qarorlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda ham milliy madaniy merosni o'rganish, targ'ib etish, va ulardan Respublika ma'naviy – ma'rifiy hamda iqtisodiy salohiyatini oshirishda unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qilingan ishlar sirasiga:

- davlat muhofazasiga olingan madaniy meros yodgorliklari ro'yxatining sezilarli darajada kengaytirilgani;

- jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin tutgan tarixiy shahar markazlari va ularda bunyod etilgan milliy me'morchilikning nodir namunalarini "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati" ga kiritilishi;

- ularni respublika dunyo miqyosida chuqur o'rganish va targ'ib etish bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishi;

- respublika miqyosida turizmni rivojlantirishda aynan tarixiy – me'moriy yodgorliklardan foydalanish masalasining mamlakatning ijtimoiy salohiyatini oshirishda qaratilgan davlat dasturlari doirasida kiritilishi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash turizm infratuzilmasini kengaytirish"da tarixiy me'moriy merosdan unumli foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan[5].

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan madaniy yodgorliklarni o'rganish va muhofaza qilishga oid ko'plab huquqiy me'yoriy hujjatlar takomillashtirilib, ularga asosan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur masalaga oid faktik materiallar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti (avvalgi Bosh boshqarma) hisobotlarida o'z aksini topgan. Xususan, departamentning statistik ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, respublikada davlat muhofazasiga olingan mavjud 8647 ta madaniy meros obyektidan

3013 tasi me'moriy yodgorliklar;

4763 tasi arxeologik yodgorliklar;

615 tasi monumental yodgorliklar;

256 tasi diqqatga sazovor joylardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi qaroriga asosan ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarning milliy ro'yxati tasdiqlangan. "Ro'yxatdan 8208 ta ko'chmas moddiy madaniy meros obyekti joy olgan bo'lib, ulardan 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 2250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari va 532 tasi diqqatga sazovor joylardir. Xususan, Samarqanddagi 1607 ta obyekt, ulardan 70 ta me'moriy yodgorlik respublika va 769 tasi mahalliy, Buxorodagi 660 ta, ulardan 283 tasi respublika, 377 tasi mahalliy, Toshkentdagi 509 ta, shundan 6 tasi respublika 503 tasi mahalliy, Xorazmdagi 225 ta, shundan 97 tasi respublika 128 tasi mahalliy, Qashqadaryodagi 204 ta, shundan 23 tasi respublika, 181 tasi mahalliy, Farg'onadagi 189 ta, shundan 9 tasi respublika, 180 tasi mahalliy, Namangandagi 109 ta, shundan 12 tasi respublika, 97 tasi mahalliy, Navoiyidagi 74 ta 11 tasi respublika, 63 tasi mahalliy, Andijondagi 67 ta, shundan 5 tasi respublika, 62 tasi mahalliy, Qoraqalpog'iston Respublikasi[6] 60 ta, shundan 22 tasi respublika, 38 tasi mahalliy, Surxondaryodagi 38 ta, shundan 12 tasi respublika,

26 tasi mahalliy, Sirdaryodagi 7 ta, mahalliy ahamiyatga ega me'moriy yodgorliklar, shuningdek, O'zbekistondagi ko'chmas madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatdan joy olgan[7]."

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, o'rganish, asrab-avaylash, ulardan foydalanish va ommalashtirish, tarixiy-madaniy obyektlarni aniqlash, hisobga olish, tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish sohasidagi jamoat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish tizimini yaratish, tarixiy-madaniy merosimizni yanada chuqur o'rganish maqsadida arxeologik qazishmalar siklini olib borish, ularni qayta tiklash, muzeylashtirish va jahonga mashhur sayyohlik markazlariga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida olib borilayotgan ishlar milliy o'zlikni tiklash, tarixiy xotirani saqlash va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Mavjud normativ-huquqiy baza va tashkilotlarning faoliyati madaniy meros obyektlarini ilmiy asosda o'rganish, ularni restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda namoyon etish imkoniyatini kengaytirmoqda. Bundan tashqari, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar mamlakatning turizm salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Kelgusida mazkur sohada monitoring tizimini mukammallashtirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос Департаменти фаолиятини ташкил этиш ҳамда моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив – ҳукукий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 265- сонли Қарори. (2019). 20 март.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (1992). 8 декабрь. 49-модда. <https://lex.uz/docs/20596>
3. <https://lex.uz/acts/25461>
4. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001. <https://www.lex.uz/docs/25461>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Қарори. (2017). <https://lex.uz/docs/3107036>
6. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. (2020). Memorial complex of the Sultan Uwais Baba— one of cult historical centers in Central Asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) Vol, 10*, 798-803.
7. Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб — чиқариш Бош бошқармаси» маълумотномаси(2016).